

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA KOMPALENS NAZORAT TIZIMINING AHAMIYATI

O‘roqov Abbosxon Nuroli o‘g‘li

Qibray tumani Adliya bo‘limi mas’ul xodimi

Korrupsiya bugungi kunda nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan davlatlar uchun ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. U davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, huquq-tartibot tizimlari va jamiyatning boshqa sohalarida adolatsizlik, samarasizlik va ishonch inqiroziga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurashish global miqyosda dolzarb vazifaga aylangan. O‘zbekiston ham bu borada bir qator institutsional va huquqiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Ularning eng samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida kompleks nazorat tizimi ajralib turadi.

Komplens nazorat tushunchasi Komplens (ingliz tilida "compliance" – muvofiqlik) – bu tashkilotning barcha faoliyati amaldagi qonunchilik, me'yoriy hujjatlar va ichki siyosatlariga mos ravishda olib borilishini ta'minlaydigan tizimdir. Komplens nazorat esa bu tizimning muntazam ishlashini ta'minlash, uni baholash, xavflarni aniqlash, xodimlar xatti-harakatini nazorat qilish va ichki audit vositasida qonunbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bu tizimning asosiy vazifasi tashkilotda korrupsion xavflarni aniqlash, minimallashtirish va butun faoliyatni halollik, shaffoflik va qonuniylik mezonlariga asoslangan holda tashkil etishdan iborat. Komplens nazorat – bu faqatgina yuristlar ishlaydigan huquqiy tizim emas, balki butun tashkilot madaniyatini shakllantiruvchi, axloqiy va amaliy mexanizmdir.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni kriminalizatsiya qilishga oid xalqaro standartlar, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, Yevropa Kengashining

Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiyasi va IHTTning Xalqaro ish amaliyotlarida xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishga qarshi kurashish bo'yicha konvensiyasida kengroq doirada belgilangan.

Xalqaro hujjatlarda komplayens nazorat tizimini joriy etishga oid standart va tavsiyalar berilgan. BMTning "Korrupsiyaga qarshi konvensiya"sining 12-moddasida "Xususiy sektor", 21-moddasida "Xususiy sektorda pora evaziga og'irish", 22-moddasida "Xususiy sektorda mulkning talon-toroj qilinishi", 39-moddasida "Milliy organlar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik" kabi korrupsiya xavflarin aniqlash, ularni oldini olishning qator profilaktik choralari amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Mazkur hujjatning komplaens nazoratni joriy etish bo'yich 12-moddasida nazarda tutilgan tavsiyalar komplaens nazorat joriy etish bo'yicha muhim sanaladi. Xususan 12-modda, "Xususiy sektor"ning b bandida ishtirokchi davlatlar tegishli xususiy tashkilotlar faoliyatida halollikni ta'minlash uchun mo'ljallangan standart va taomillarni, shu jumladan tadbirkorlar va barcha tegishli kasb-hunarlar sohiblari o'z faoliyatlarini to'g'ri, vijdonan va tegishli darajada amalga oshirishlari uchun va manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish hamda tijorat korxonalar o'rtasidagi munosabatlarda va bunday korxonalar va davlat o'rtasidagi munosabatlarda halol tijorat amaliyoti qo'llanilishini rag'batlantirish uchun mo'ljallangan standart va taomillarni ishlab chiqishda ko'maklashish nazarda tutilgan.

Bu o'rinda komplaens sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtiruvchi Xalqaro komplaens assosiatsiyasining (International Compliance Association) "komplaens bu faoliyatni o'rnatilgan talab va standartlarga muvofiq ta'minlash va uning tizimi

SJIF:5.219

esa ushbu talab va qoidalarining majmui” deyiladi¹.

Shunday qilib, bugungi kundagi xalqaro tajribaga ko‘ra komplaens nazorat tizimini joriy etishning keng tarqalgan ikkita modeli qo‘llanilmoqda:

Birinchisi, kompaniya va tashkilot faoliyati faqatgina o‘rnatilgan mavjud qonun va qoidalarga muvofiq tashkil etishga qaratiladi va bunda komplaens xizmatini joriy etilishi minimal qoidalar bilan cheklanadi;

Ikkinchisi, komplaens xizmatining tashkil etilishi davlat tomonidan tartibga solingan va korrupsiya xavflarni baholashda xalqaro tashkilotlarning (Bazel bank qo‘mitasining tavsiyalari, Volsberg guruxi (Wolfsberg Group) tavsiyalariga asoslanadi va bu modelda komplaens xizmatning maqomi, vazifasi, faoliyat doirasi ko‘proq xalqaro standart va tavsiyalarga asoslanadi.²

Komplens tizimining korrupsiyaga qarshi kurashdagi o‘rni

1. Risklarni aniqlash va oldini olish: Komplens nazorat tizimi yordamida tashkilotdagi barcha korrupsion xavflar aniqlanadi. Bu orqali ularga nisbatan profilaktik choralar ko‘riladi. Misol uchun, manfaatlar to‘qnashuvi, davlat xaridlari, homiylik mablag‘lari kabi sohalar alohida e‘tibor ostiga olinadi.

2. Ichki madaniyatni shakllantirish: Tashkilotda axloqiy kodeks, xatti-harakatlar standartlari joriy qilinadi. Xodimlar halollik, vijdonlilik va qonunchilikka rioya qilishga o‘rgatiladi. Bu esa korrupsiya xavfini ichki ongli darajada pasaytiradi.

¹ “ISO 37001 - Anti-bribery management systems”/[Электрон манба]. URL: <https://www.iso.org/ru/standard/62342.html>.

² URL:<https://www.wolfsberg-principles.com>.

3. Huquqiy xavflarni kamaytirish: Komplens tizimi qonunbuzarliklarning oldini oladi, natijada tashkilot yirik jarimalar, litsenziyani yo‘qotish yoki sud ishlari kabi huquqiy muammolardan himoyalanaadi.

4. Shaffoflikni oshirish: Har bir moliyaviy va boshqaruv qarori aniq tartibga solinadi, hujjatlashtiriladi. Bu esa yashirin bitimlar, norasmiy kelishuvlar va poraxo‘rlikka qarshi kuchli to‘siq bo‘lib xizmat qiladi.

Komplens tizimini joriy etish bosqichlari

1. Korrupsiyaviy risklarni tahlil qilish: Tashkilot faoliyatida korrupsiya yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha soha va jarayonlar tahlil qilinadi.

2. Ichki me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish: Etika kodeksi, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish siyosati, shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi va boshqa yo‘riqnomalar tayyorlanadi.

3. Xodimlarni o‘qitish va axborot berish: Komplens siyosatlari bo‘yicha muntazam seminar, trening va ichki kommunikatsiya ishlari yo‘lga qo‘yiladi.

4. Ichki nazorat va audit: Maxsus bo‘lim yoki mas‘ul xodimlar tomonidan tashkilot faoliyati muntazam tekshiruvdan o‘tkaziladi.

5. Raqamli texnologiyalardan foydalanish: Korrupsion xavflarni real vaqt rejimida aniqlash imkonini beruvchi elektron tizimlar ishlab chiqiladi.

O‘zbekiston tajribasi

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. 2020-yilda Prezident farmoni bilan “Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi” tashkil etildi. Shuningdek, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun doirasida davlat idoralari va yirik

tashkilotlarda ichki kompleks tizimlarini yaratish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

“Aloqabank”, “O‘zbekneftgaz”, “O‘zbekiston temir yo‘llari” va boshqa yirik kompaniyalar o‘zlarining ichki kompleks siyosatini ishlab chiqdilar. Xususan, ushbu tashkilotlarda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, davlat xaridlarida shaffoflikni ta'minlash va xodimlar axloqiy xatti-harakatini nazorat qilish bo'yicha maxsus bo‘linmalar faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, “Korrupsiyasiz soha” loyihasi doirasida ta'lim, sog‘liqni saqlash, soliq va bojxona tizimlarida ham kompleks yondashuvi asosida yangi boshqaruv uslublari joriy etilmoqda.

Muammolar va kamchiliklar

Ammo bu boradagi ishlar hali to‘liq natija bergani yo‘q. Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

Tashkilotlarda kompleks madaniyati hali yetarlicha shakllanmagan.

Komplex xodimlari yetishmaydi, ularning malakasi past.

Elektron nazorat tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Xususiy sektorda bu tizim hali keng qo‘llanilmayapti.

Taklif va xulosalar

1. Kompleks tizimini majburiy joriy etish: Katta moliyaviy aylanmaga ega barcha davlat va xususiy tashkilotlarda kompleks tizimi majburiy tarzda joriy etilishi kerak.

2. Kadrlar tayyorlash: Oliy o‘quv yurtlarida kompleks bo‘yicha maxsus kurslar ochilishi, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi zarur.

3. Raqamlashtirishni jadallashtirish: Xarajatlar, tenderlar, shartnomalar va qarorlarni monitoring qilish imkonini beruvchi elektron platformalar yaratish lozim.

4. Mustaqil kompleks ofitserlari instituti: Har bir tashkilotda bevosita rahbariyatga bo'ysunuvchi, lekin mustaqil faoliyat yurituvchi kompleks ofitserlari lavozimi joriy etilishi kerak.

5. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish: Fuqarolik jamiyati institutlari, OAV va blogerlar faol ishtirokini rag'batlantirish orqali, korrupsiyaga qarshi ommaviy muhit shakllantiriladi.

Xulosa shuki, korrupsiyaga qarshi kurashda klassik huquqiy choralar yetarli emas. Komplaens nazorat tizimi esa profilaktika, ichki nazorat va madaniy ongni uyg'otish orqali korrupsiyani ildizidan quritishga xizmat qiluvchi kuchli vositadir. O'zbekiston bu yo'lda dastlabki qadamlarni qo'ydi. Endi esa bu tizimni yanada chuqurlashtirish, uni barcha sohalarga tatbiq etish va uni real amaliyotga aylantirish vaqti keldi. Faqat shundagina korrupsiyasiz, adolatli va samarali boshqaruv tizimi shakllanishi mumkin.